

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)
(2019 yil 1 mart holatiga)

2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 1256 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 385 taga ko'pdir.


Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3558 ta (14,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 28755 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2016	1886	34
	Sanoat	6110	5816	253
	Qurilish	2678	2567	141
	Savdo	7939	7487	607
	Tashish va saqlash	1161	1125	39
	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1421	1346	55
	Axborot va aloqa	582	547	16
	Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	680	658	18
	Boshqa turlari	7515	7323	93



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 mart holatiga 30102 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 26,4 % savdo, 20,3 % sanoat, 8,9 % qurilish, 6,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,9 % axborot va aloqa hamda 25,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (9927 ta), Asaka (2708 ta), Shahrihon (2171 ta) va Andijon (2104 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Honabod shahri (471 ta), Ulug'nor (574 ta), Bo'z (732 ta) hamda Buloqboshi (757 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **28755** tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3558 ta (14,1 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,0 % savdo, 20,2 % sanoat, 8,9 % qurilish, 6,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,9 % axborot va aloqa hamda 25,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaranganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (9600 ta), Asaka (2678 ta), Andijon (1916 ta) va Shahrihon (1909 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Honobod shahri (461 ta), Ulug'nor (581 ta), Bo'z (722 ta) hamda Buloqboshi (744 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.03.2017 y.

• 26811 ta

01.03.2018 y.

• 25197 ta

01.03.2019 y.


• 28755 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019 yil yanvar-fevral oylarida 1256 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 385 taga yoki 44,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Andijon shahri (376 ta), Shahrihon (128 ta), Asaka (112 ta) va Andijon (83 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ulug'nor (14 ta), Honabod shahri (19 ta) hamda Bo'z (25 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (607 ta), sanoat (253 ta), qurilish (141 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (55 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (16 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (18 ta), tashish va saqlash (39 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.03.2017 y.		01.03.2018 y.		01.03.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	617	100	871	100	1256	100
Savdo	186	30,2	133	15,2	607	48,3
Sanoat	166	26,9	175	20,1	253	20,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	70	11,3	47	5,4	34	2,7
Qurilish	41	6,6	99	11,4	141	11,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	19	3,1	26	3,0	55	4,4
Tashish va saqlash	29	4,7	60	6,9	39	3,1
Axborot va aloqa	12	1,9	21	2,4	16	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	9	1,5	40	4,6	18	1,4
Boshqa turlari	85	13,8	270	31,0	93	7,4

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






TIJORAT KORXONALAR.

2019 yil 1 mart holatiga 24035 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6267 ta, oilaviy korxonalar – 594 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 16599 ta va boshqalar 575 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 239 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 64 taga yoki 36,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 133 tasi qo'shma korxonalar, 106 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 93 ta (jamidagi ulushi 38,9 %), Andijon 19 ta (8,0 %), Shahrihon 17 ta (7,1 %) va Asaka tumanida 15 tani (6,3 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'z 4 ta (1,7 %), Ulug'nor 4 ta (1,7 %), Jalaquduq 5 ta (2,1 %), Paxtaobod 5 ta (2,1 %) va Xo'jaobod tumanida 6 tani (2,5 %) tashkil etgan.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 164 tani (68,6 %), savdoda 25 tani (10,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 19 tani (8,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 12 tani (5,0 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 tani (0,4 %), tashish va saqlashda 2 tani (0,8 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 tani (2,9 %) va qurilishda 9 tani (3,8 %) tashkil qilgan.

Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlashda faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 14 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi - 4 ta, Koreya Respublikasi - 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 2 ta, Afg'oniston Respublikasi - 2 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 2 ta, Turkiya Respublikasi - 1 ta va Pokiston Islom Respublikasi - 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yilda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi ulushi, %




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat 6 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 3 ta, savdo 3 ta va qurilish 2 ta faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.



Kichik korxona va mikrofirmalar soni.


2019 yil 1 mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 23900 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 15,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 8515 tasi (35,6 %) Andijon shahri, 2284 tasi (9,6 %) Asaka, 1629 tasi (6,8 %) Andijon hamda 1550 tasi (6,5 %) Shahrihon tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 23900 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 7455 tasi (31,2 %) - savdo, 5763 tasi (24,1 %) - sanoat, 2563 tasi (10,7 %) - qurilish, 1857 tasi (7,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1338 tasi (5,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1104 tasi (4,6 %) - tashish va saqlash, 582 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 541 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2697 tasi (11,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 yil yanvar-fevral oylarida 1215 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 88,9 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (364 ta), Shahrihon (128 ta), Asaka (109 ta) va Andijon (83 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Ulug'nor (13 ta), Honobod shahri (19 ta) hamda Bo'z (23 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda 606 ta, sanoatda 253 ta, qurilishda 141 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 55 ta, tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada 16 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 18 ta tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni


2019 yilning 1 mart holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 627 tani tashkil etib, ulardan 594 tasi yoki 94,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda ro'yhatdan o'tganlarning soni 20,8 % ga hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni 21,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 44,8 % yoki 266 tasi sanoat, 21,9 % yoki 130 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,8 % yoki 70 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,1 % yoki 60 tasi savdo, 1,7 % yoki 10 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % yoki 7 tasi qurilish, 0,8 % yoki 5 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 5 tasi axborot va aloqa hamda 6,9 % yoki 41 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, eng kami esa axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:74-228-29-74